

O‘QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi

Qo‘qon davlat universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasini v.b dotsenti

Kalit so‘zlar: *Kommunikativ ko‘nikma, metod, metodika, innovatsiya, kommunikatsiya, metodologiya, kuzatish, muhokama, fanlararo yondashuv, bilim, ko‘nikma, malaka.*

Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning kommunikativ faolligini oshirish va nutqiy qobiliyatlarini shakllantirishda *pedagogik ta‘sir va rag‘batlantiruvchi usullar* alohida o‘rin tutadi. Bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tanlangan ta‘sir usullari va muloqotga yo‘naltirilgan faoliyat shakllari ularda nutq orqali o‘zini ifoda etish, fikrlash, muhokama qilish va ijtimoiy munosabat o‘rnatish qobiliyatini faollashtiradi. Ayniqsa, quyidagi usullar bu yo‘nalishda samarali hisoblanadi:

Kuzatish — bolaning nutqiy faolligi, jamoadagi ishtiroki va muloqotdagi individual xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu usul orqali o‘qituvchi har bir o‘quvchining qaysi ko‘nikmada muvaffaqiyatli, qaysi sohada qiynalayotganini aniqlab, maqsadli pedagogik choralar ko‘radi. Masalan, so‘zlashishda qiynalashayotgan, lekin tinglashda faol bolalar uchun muloqotni extiyojdan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich tashkil qilish mumkin.

Savol-javob usuli — bolalarda mulohaza yuritish, tinglash va to‘g‘ri so‘z tanlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ushbu usul shunchaki ma‘lumot so‘rash emas, balki tafakkurni faollashtirish, so‘z bilan ishlash, javobni modellashtirish va nutqni mantiqiy ifoda etish imkonini beradi. Qiziqarli, ochiq, tahlilga asoslangan savollar bolalarda so‘zlashuvga qiziqish uyg‘otadi va ularni erkin fikr bildirishga undaydi.

Fikr bildirish — bolalarda shaxsiy pozitsiyani shakllantirish, o‘z fikrini asoslash, boshqalar fikrini inobatga olgan holda munosabat bildirish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bu usul orqali bolalar nafaqat ma‘lumotni qayta aytmaydi, balki o‘z munosabatini nutq orqali bayon qiladi. Masalan, “Sen bu qahramon o‘rnida bo‘lsang, nima qilgan bo‘larding?”, “Bu voqea senda qanday hissiyot uyg‘otdi?” kabi savollar bolaning ichki dunyosiga yo‘l ochadi.

Muhokama — guruhdagi o‘zaro fikr almashish, eshitish va javob berish, boshqalar fikrini inkor qilmasdan, konstruktiv ravishda o‘z fikrini bildirish, murosaga kelish, mulohazali tortishish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Muhokama usuli bolalarni kollektiv fikrlashga, boshqalarga e‘tiborli bo‘lishga, so‘zlarni maqsadga muvofiq tanlashga o‘rgatadi. Bu usul ijtimoiy faollik va muloqot madaniyatining asosiy vositalaridan biridir.

Ijodiy topshiriqlar — she‘r tuzish, dialog yozish, ssenariy tayyorlash, qahramonga maktub yozish, rasm bo‘yicha hikoya tuzish kabi faoliyatlar bolalarda so‘z bilan erkin ishlash, tafakkurni ifoda etish, hissiy munosabatni so‘zga ko‘chirish qobiliyatini rivojlantiradi. Ijodiy faoliyatda bola o‘zini erkin his qiladi va nutqni shaxsiy, jonli va tabiiy shaklda qo‘llash imkoniga ega bo‘ladi.

Ushbu pedagogik ta’sir va rag‘batlantiruvchi usullar boshlang‘ich sinfdagi kommunikativ ko‘nikmalarni maqsadli va tizimli rivojlantirishning asosiy yo‘llaridan biri bo‘lib, bolalarda nutqiy faollik, ijtimoiy muloqot madaniyati va shaxsiy ifoda qobiliyatining mustahkam poydevorini yaratadi.

Boshlang‘ich sinfda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonida *o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot* alohida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Chunki aynan o‘qituvchi bola uchun nutq namunalarini ko‘rsatuvchi, uni muloqotga jalb etuvchi, so‘z orqali fikrlashni o‘rgatuvchi va ijtimoiy munosabatlarda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi asosiy shaxs hisoblanadi. Boshlang‘ich sinfdagi bolalar so‘z va muloqotni faqat ma’lumot olish yoki topshiriq bajarish uchun emas, balki shaxsiy munosabatlarni qurish, o‘zini namoyon qilish va ijtimoiy maqsadlarga erishish vositasi sifatida anglab borishlari kerak. Bu jarayonda o‘qituvchi nutqiy muhitning tashkiliysi, bolalarning nutqiy ehtiyojlarini aniqlab, ularning salohiyatini ochib beradigan asosiy ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchi-o‘quvchi muloqoti nafaqat axborot almashishni, balki shaxsiy va ijtimoiy aloqa orqali nutqiy strategiyalarni o‘rgatishni o‘z ichiga oladi. Masalan, o‘qituvchining so‘zlari, savollari, rag‘batlantiruvchi munosabati, ishoralari va hatto yuz ifodasi bolada muloqotga kirishishga bo‘lgan ishonch va qiziqishni uyg‘otadi. Shunday muhitda bola o‘z so‘zi qadrlanishini, fikri eshutilishini anglaydi va muloqot jarayonida faollikka intiladi. Bundan tashqari, o‘qituvchi muloqot jarayonida bolalarni xatolardan qo‘rqmaslikka, erkin ifodaga, o‘zaro hurmat va empatiyaga o‘rgatadi. Shu jihatdan pedagog faqat o‘quv mazmunini yetkazuvchi emas, balki muloqotning jonli ishtirokchisi sifatida shaxsiy misoli orqali ham tarbiyachi hisoblanadi. Bu haqda tadqiqotchi N.K.Umarov shunday ta’kidlaydi: “Boshlang‘ich ta’limda muloqot jarayoni nafaqat axborot uzatish, balki bolalarning nutqiy rivojlanishi va shaxsiy ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishning eng muhim vositasidir”.³

Umuman, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot jonli, erkin va emosional muhitda tashkil etilsa, u bolalarning nutqiy rivojlanishi, ijtimoiy aloqalarga tayyorlanishi va faol shaxs sifatida shakllanishi uchun kuchli mexanizmga aylanadi. Bu jarayonda eng muhimi — bolalarning har bir gapi, savoli va fikri qadrlanishi va pedagogik yo‘naltiruv orqali rivojlantirilishi hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’limda kommunikativ ko‘nikmalarni samarali rivojlantirish uchun faqat pedagogik yoki faqat psixologik yondashuvning o‘zi yetarli emas: ularni uyg‘unlashtirish zarur. Bu jarayonda o‘quvchilarning nutqiy rivojlanishi, hissiy holati, ijtimoiy ehtiyojlari va ma’rifiy maqsadlarini birgalikda hisobga olib tashkil etish o‘ta muhim hisoblanadi. Psixologik-pedagogik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali bolalarda nafaqat til vositalari orqali muloqot qilish, balki emosional idrok, ijtimoiy munosabatlar qurish va shaxsiy pozitsiyani rivojlantirish salohiyati kuchayadi. Shu bois, ta’lim jarayonida bu ikki yo‘nalishni birgalikda qo‘llashning metodologik asoslarini aniqlab berish muhim vazifa hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda *fanlararo yondashuv*, ya’ni psixologiya, pedagogika va lingvistikaning birgalikda qo‘llanilishi o‘ta muhim ahamiyatga ega. Chunki muloqot bu faqat til vositasidagi aloqa emas, balki

³ Umarov N.K. Бошланғич синф ўқувчиларида коммуникатив компетенцияни ривожлантириш. – Т.: Насаф, 2015. – Б. 52.

fikrlash, his qilish, ijtimoiy munosabat va axloqiy munosabatlarni qamrab olgan ko‘p qirrali, kompleks jarayondir. Shu bois, har bir fan ushbu ko‘nikmalarning muayyan qirrasini ochib beradi va ularning uyg‘unligi ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli natijalarga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdelghani R., Oudeyer P.-Y., Law E. *Conversational agents for fostering curiosity-driven learning in children* // arXiv:2204.03546. 2022.
2. Chomsky N. *Aspects of the Theory of Syntax*. – Cambridge: MIT Press, 2005. – P. 4.
3. Duschanova N.S. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar: qiyosiy tahlil. *Academic Research in Educational Sciences* . Volume 3, Issue 3, March, 2022.
4. Haiman G. *Group communication in school environments*. – New York: Palgrave Macmillan, 2015. – P. 67.